


# “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ

## “Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi” AJ

Qoraqozé tuman elektr ta'minoti korxonasi



### ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI

### SHARTNOMASI

Shartnoma raqami № 29 02

Iste'molchi nomi Dijokuzay xoddijatovna Bo'ebetova

Iste'molchi uyali telefon raqamlari \_\_\_\_\_

Iste'molchi ma'sul xodimi (71) 252-26-50

Brigada raqami 13

Kitob raqami 59

# ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI SHARTNOMASI

20 22 yil "O" Anafaf

29.02-son

YAKKASAROV  
*TETK nomi*

"Toshkent shahar elektr tarmoqlari "AJ ning 2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ da ro'yxatdan o'tkazilgan \_\_\_\_\_ - son bosh ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi

YAKKASAROV TETK  
*(tuman elektr ta'minoti korxonasining nomi)*

rahbari A.I. ISMICOV  
*F.I.O*

(keyingi o'rnlarda "Ta'minotchi korxona" deb ataladi) bir tomondan hamda

Yctob asosida faoliyat yurituvchi Duyerkash xujonasi Buciolok  
*(iste'molchining nomi)*

rahbari Pyzuh O.lli  
*Iste molchi rahbarining F.I.O.* (keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb ataladi),

ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1. Ushbu elektr energiyasi ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rnlarda - **Shartnoma** deb ataladi) muvofiq, "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

## II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI XISOBGA OLISH

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

Aktiv 20000 kVt\*s. reaktiv 450 = kVar\*s.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi

9000 000 so'mni, tarif bo'yicha BIR STAVKLI tashkil etadi.  
*tarif turi: tabaqalashirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan, (keraklisi yozilsin)*

2.3. "Iste'molchi"ga yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik xajmi ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

Yetkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun elektr ta'minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrdagi 277-sun qarorida qayd etilgan, strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilarga zarur bo'lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha iste'molchi bilan belgilangan tartibda oldindan kelishilgan holda yetkazib berilishini ta'minlashi shart (7-ilova).

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformasiya koeffisiyentlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) elektr energiyasini xisobga olish uskunalari, shuningdek elektr energiyasini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlaridagi elektr energiyasini hisobga olish elektron asboblarini sotib olish, o'rnatish, ro'yxatga olish, davriy davlat qiyoslovidan o'tkazish va plombalash, shuningdek, mavjud (jumladan, induksion) hisobga olish asboblari ilk marotaba (**birinchi** marotaba) hududiy elektr tarmoqlari korxonasi mablag'lari hisobidan almashtiriladi.

Hisobga olish iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (tok va kuchlanishni o'lchash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek, ikkilamchi kommutasiya, hisobga olish asboblarining shikastlanishi va ularning yo'qolishi) hisobga olish nazorat qilish asboblarini va ularga tegishli asbob-uskunalarini almashtirish, ta'mirlash, davlat qiyoslovidan o'tkazish va o'rnatish iste'molchi tomonidan ular qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

### III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar bir stavkali, tabaqalashtirilgan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilar uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz davr – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9<sup>00</sup> dan 17<sup>00</sup> gacha) – belgilangan tarif bo'yicha,

tig'iz davr – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha, kechki eng katta miqdor soat 17<sup>00</sup> dan 22<sup>00</sup> gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffisiyentni qo'llash orqali;

tungi davr – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22<sup>00</sup> dan 24<sup>00</sup> gacha va 00<sup>00</sup> dan 6<sup>00</sup> gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffisiyentni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga to'g'ri keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensasiyasi uchun chegirmalar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilingan (hosil qilgan) reaktiv energiyaning 1 kVar.saat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energiyaning shartnomaviy miqdori reaktiv energiyaning iqtisodiy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Reaktiv energiyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffisiyentining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energiyaning shartnomadagi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ulangan quvvatidan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi iste'molchilar (turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat) foydalangan elektr energiyasi uchun to'lovlarini tegishli tarif guruhiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi koeffisiyentga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir necha tarif guruhlariga mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhiga alohida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

3.4. “Ta’minotchi korxona” iste’molchi (yoki uning vakili) bilan birgalikda iste’mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini hisobga olish asboblari ko’rsatkichlarini har oyda yozib olishi va zarur bo’lganda elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ulash sxemasini tekshirib ko’rishi vakolatiga ega.

“Iste’molchi” hisob-kitob davri tugagandan so’ng Elektr ta’minoti korxonasi vakolatli vakili bilan birgalikda (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan zarurat bo’lganda holda) yoki uning ishtirokisiz hisobga olish priborlarining ko’rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu shartnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo’yicha hisobot tuzadi va ushbu hisobotni “Ta’minotchi korxona”ga belgilangan shakl bo’yicha o’z qo’li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali har oyning “05” sanasigacha taqdim etadi. Elektr energiyasi sarfi to’g’risidagi taqdim etilgan hisobot yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste’mol qilingan elektr energiyasining amaldagi hajmini aniqlash uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Bunda, to’lovlarini tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiradigan “Iste’molchi”lar bo’yicha elektr energiya sarfi bo’yicha hisobotda foydalanilgan elektr energiya (aktiv va reaktiv) to’liq hajmidan tashqari tig’iz, yarim tig’iz va tungi paytlarda foydalanilgan elektr energiya hajmlari aloxida ham ko’rsatilishi shart.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EHNAT) joriy etilgan iste’molchilarda hisobga olish asboblaridagi ko’rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste’molchining buyurtmasi bo’yicha yozib olinadi.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o’zgargan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o’zgargan sanadan qatiy nazar. elektr ta’minoti shartnomasi o’z kuchida qoladi va iste’molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to’lashga majburdir.

Tarif o’zgargan taqdirda, iste’molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to’langan xajmi uchun to’lov kunidan boshlab keyingi bir oydan ortiq bo’lmagan muddatda qo’shimcha to’lov to’lashdan ozod etiladi.

Arifmetik xatoliklar, ko’rsatkichlarda noaniqliklar kuzatilganda, tariflarni noto’g’ri qo’llash tufayli paydo bo’ladigan kam va ortiqcha to’lovlar tegishli tarif bo’yicha kVt\*soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va “Ta’minotchi korxona” tomonidan da’vo muddati doirasida ko’rsatkichlardagi tafovut yoki qo’shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi.

3.6. “Iste’molchi”ga elektr energiyasi yetkazib berish 100 foiz oldindan haq to’lash asosida amalga oshiriladi. Ya’ni, iste’molchi oylik elektr energiya iste’moli bo’yicha hisobotni oyning 01 sanasidan 05 sanasigacha elektron yoki yozma shaklda topshiradi, so’ngra oyning 10-sanasigacha hisobot oyi va kelgusi oy uchun shartnomada belgilangan 100 foizlik miqdor uchun oldindan haq to’laydi. Oylik iste’mol va oldindan to’lovnii to’liq to’lamagan iste’molchilar, oyning 11-sanasidan boshlab ogohlantirishsiz elektr manbaidan uziladi.

Bunda, hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to’lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste’molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko’rsatib hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Ta’minotchi korxonaga murojaat qilganlari taqdirda elektr energiyasi iste’molchilarga 50 foiz oldindan haq to’lash asosida yetkazib berilishiga yo’l qo’yiladi. Oldindan haq to’lanmagan hamda 50 foiz oldindan haq to’layotgan iste’molchilar tomonidan oyning

oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilmagan hollarda mazkur iste'molchilarga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralar ko'rildi.

Muntazam ravishda (loydan ortiq vaqt davomida) to'lovlarni to'lamasdan kelayotgan iste'molchilar hech qanday ogohlantirishsiz tarmoqdan ajratiladi (maxsus tartibda elektr energiya yetqazib beriladigan iste'molchilar bundan mustasno).

3.7. "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi. To'lov to'g'risida iste'molchini xabardor qilish ogohlantirish hisoblanadi.

"Iste'molchi" turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta obyektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etadiladi.

"Ta'minotchi korxona" tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini shakllantiriladi hamda iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamlı imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi. Agar maxsus dasturiy mahsulot orqali yetkazish imkoniyat mavjud bo'lmasa hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i yozma shaklda beraladi.

(Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)

3.8. Hisobga olish pribori ushbu shartnomaga 3-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatasiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog'ining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi yoki taraflar kelishiwi asosida ushbu shartnomaga 4-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi va elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasing va iste'molchining hisobiga o'tkaziladi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatasiya tashkilotlarining ko'p qavatli uyning ichki tarmoqdagi yo'qotishlari bundan mustasno.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarni amalga oshiradigan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi. (6-, 7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi).

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste'molining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxona

tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Zaruriyat bo'lganda ta'minotchi korxona iste'molchilar bilan birgalikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini xisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini xar oyda yozib olishi va elektr energiyasini xisobga olish priborlarini ularash sxemasini tekshirib ko'rishi kerak. "Iste'molchi" tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida "Ta'minotchi korxona"ga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan xisobot yuridik shaxslar xamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Energiya ta'minot korxonasi xodimlari har oyda hisoblagich ulanish sxemalarini tekshirishga majbur emas.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashтирilган тизими (ЕННАТ) ning joriy etilishi munosabati bilan iste'molchilarning xisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashтирilган тизимнинг texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

"Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning shaxsiy xisob-raqam va xisobga olish priborlarining xolati xaqida batafsil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron xamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

3.12. Shartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, "Iste'molchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilingan elektr energiyasi ja'mi hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.

"Iste'molchi"ning elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensasiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun "Iste'molchi"ga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda yetkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'loving 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.13. "Iste'molchi" va "Ta'minotchi korxona" har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.14. "Iste'molchi"ni quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

Ta'minotchi korxonaning qonuniy talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganda;

hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga tashqaridan aralashish hatti-harakatlar amalga oshirilganda;

elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talontaroj qilish yoki Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvarlagi 22-sonli Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda.

yagona elektr energetika tizimida elektr energiya va quvvatda tanqislik vujudga kelganda, avariyalarga yo'l qo'ymaslik va iste'molchilarining tartibsiz uzib qo'yilishining oldini olish maqsadida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o'chirish vaqtini ko'rsatgan holda, iste'molchilardan reklamalar, illyuminasiyalar, bino va inshootlarni yoritgichlarini, elektr isitish va issiq suv bilan ta'minlash qurilmalarini o'chirib qo'yishni talabi bajarilmaganda;

Sud organlarining qonuniy kuchga kirgan qarorlariga asosan.

Iste'molchilar va subiste'molchilar (ijarachilar), tadbirkorlik subyektlari yoxud fuqarolar o'rtasida turli xil nizoli (kelishmovchilik) holatlarda, faqatgina sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarida tarmoqdan ajratish(ulash) belgilangan bo'lsa Ta'minotchi korxona elektr tarmoqdan ajratish yoki qayta ulashni amalga oshiradi.

3.15. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, "Iste'molchi"ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.16. Ta'minotchi korxona yetkazib berilgan elektr enegiya uchun qarzdor bo'lgan Iste'molchiga qarzni besh kun ichida to'lanishi haqida xabardor qilishni ta'minlaydi.

Ta'minotchi korxona Iste'molchini xabardor qilingan vaqtdan boshlab besh kun muddat o'tgandan so'ng, Iste'molchini debitor qarzdorlik uchun tarmoqdan uzib qo'yish va ularni qaytadan ulashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Qayta ulanishda Iste'molchidan to'lov kuni amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida xaq undiriladi. Bunda, elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari (EHNAT)ga ulangan ya'ni, hisobga olish pribori avtomatik tarzda BILING dasturi tomonidan o'chirilgan iste'molchilarni tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi.

3.17. "Iste'molchi" elektr tarmoqlarining texnik holatini ta'minlash bo'yicha ekspluatasiya xarajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan aloxida shartnoma bo'yicha elektr energiyasining umumiy xajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda xaq to'laydi.

Ekspluatasiya xarajatlарини subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.18. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lov tariflari quyidagi hollarda aholi uchun belgilangan tariflarga tenglashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" gi O'RQ 327-sون Qonunning 28-moddasiga asosan Oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o'zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda elektr energiyasi haqini to'lash aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida;

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 10 sentyabrdagi 525-f-sonli Farmoyishiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududidagi diniy tashkilotlar 2003 yilning 1 sentyabridan boshlab ularga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar elektr energiyasiga to'lovlarni aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha to'laydilar.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatasiya tashkilotlari, elektr energiyasidan aholiga elektr energiyasi yetkazib berish maqsadida foydalanuvchi idoraviy va munisipial uy-joy fondi, yuridik shaxslar yotoqxonalari, diniy tashkilotlar, shuningdek, elektr

energiyasidan aholi ehtiyojlari uchun foydalanadigan lokal qozonxonalarga maishiy iste'molchilarga belgilangan tarif qo'llaniladi.

3.19. Elektr energiyasini hisobga olish asboblari va elektr energiyasini hisobga olish asboblari bilan birgalikda foydalaniladigan o'lchov transformatorlarini boshqa joyga o'rnatish va almashtirish ta'minotchi korxona bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Iste'molchining aybi bilan elektr energiyasini hisobga olish priboriga zarar yetkazilgan (plombasi buzilsa, oynasi sinsa va boshqalar), elektr energiyasini hisobga olish priborini ulash sxemasi o'zgartirilgan, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilgan, elektr energiyasini hisobga olish priboridan tashqari elektr qabul qilgichlarni ulash yoki energiya boshqa usulda o'g'irlangan hollarda, Ta'minotchi korxonaning vakolatlari vakili belgilangan shakl bo'yicha qoidani buzish dalolatnomasini tuzadi. Ushbu dalolatnoma asosida Ta'minotchi korxona Iste'molchini elektr tarmog'idan uzib qo'yadi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati Ta'minotchi korxona tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan iste'molchining ish soatlari soni hisobga olingan holda elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati bo'yicha quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

elektr energiyasini hisobga olish pribori, o'lchov transformatorlarini ulash sxemalari o'zgartirilganda, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilganda va hisobga olishni nazorat qilish asboblaridan tashqari elektr qabul qilgichlar ko'z bilan aniqlab bo'lmaydigan (aniqlash murakkab bo'lgan) yashirin yo'l bilan (yashirin elektr simlari, pereklyuchatellar montaj qilinishi va shu kabilalar) ulanganda – elektr energiyani hisobga olishning nazorat asboblari oxirgi almashtirilgan yoki ulanish sxemalari tekshirilgan kundan boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lman muddatda;

elektr energiyasini hisobga olish priboriga iste'molchining aybi bilan zarar yetkazilganda (plombasi buzilishiga yo'l qo'yilgan, oynasi singan holatlar) yoki elektr energiyasi aylanib chiqishda ko'z bilan aniqlash mumkin bo'lgan boshqa usulda o'g'irlangan taqdirda – oxirgi marta aylanib chiqilgan kundan yoki elektron ko'rsatkichlar olingan kun boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lman muddatda amalga oshiriladi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori qiymatini hisob-kitob qilishda qoida buzish aniqlanishidan oldingi davr uchun amaldagi to'lovlar hisobga olingan holda, qayta hisob-kitob amalga oshirilayotgan vaqtdagi tarif qo'llaniladi. Bunda I tarif guruhidagi Iste'molchilar uchun o'g'irlik holatlarida hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati yagona elektr energetikasi tizimining maksimal yuklanish soatlari amal qiladigan tarif bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

To'lov hujjatida xatolar yoki hisobga olish asboblari ko'rsatkichida noaniqliklar aniqlangan taqdirda (xatolik bilan ishlash holatlari yoki hisoblagich inson omili ta'sirsiz nosoz ishslash holatlarida) haqiqiy elektr energiya xajmi hisob-kitob qilinadi.

Elektr energiyasini hisobga olish Iste'molchining aybisiz vaqtinchalik buzilganda yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob Ta'minotchi korxonaning qarori bo'yicha, hisobga olish buzilishiga qadar bo'lgan oldingi hisob-kitob davridagi yoki hisobga olish tiklangandan keyingi davrdagi o'rtacha sutkalik sarf bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyaning o'rtacha sutkalik sarfi bo'yicha hisob-kitob qilish davri bir oydan oshmasligi kerak va shu vaqt ichida hisobga olish tiklanishi zarur.

Agar, elektr energiyani hisobga olish priborini obyektiv sabablarga ko'ra, ko'rsatilgan muddatda (o'lchash transformatorining, hisobga olish priborining yo'qligi, o'tib bo'lmaydigan yo'llar va shu kabilar tufayli) tiklash imkoniyati bo'lmasa, iste'molchiga yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish tartibi va hisobga olishni tiklash muddati iste'molchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasingning o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi.

Elektr energiyasidan foydalanishda Iste'molchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzilishlar Ta'minotchi korxona vakili va Iste'molchi tomonidan imzolangan ikki nusxadagi belgilangan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uning bir nusxasi Iste'molchiga beriladi va

Ta'minotchi korxona tomonidan ushbu Qoidalarni buzgan Iste'molchi elektr qurilmalari tarmoqdan uzib qo'yiladi.

Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, qoida buzish dalolatnomasida iste'molchini tanishtirganlik to'g'risida belgi qo'yiladi.

3.20 Subiste'molchilar bilan shartnomalar to'g'ridan-to'g'ri rasmiylashtirilgan hollarda, iste'molchi va subiste'molchi o'rtasida ekspluatasion xarajatlar yoki boshqa sabablarga ko'ra o'zaro kelishmovchiliklar sodir bo'lganda, asosiy iste'molchi tomonidan subistemolchini elektr tarmoqdan ajratilgan holatlari uchun energiya ta'minot korxonasi javobgar hisoblanmaydi.

3.21 Subiste'molchilar bilan shartnomalar to'g'ridan-to'g'ri tuman ETK tomonidan rasmiylashtirilgan holatlarida, iste'molchi va subiste'molchi elektr tarmog'iда sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar (yong'in, avariya holatlari, inson o'limi bilan bog'liq hodisalar va hokazolar) uchun energiya ta'minot korxonasi javobgar hisoblanmaydi.

#### **IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

##### **4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:**

“Iste'molchi”ning elektr qurilmalarini “Ta'minotchi korxona” elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

elektr energiyasi yetkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

“Ta'minotchi korxona”ga iste'mol qiladigan elektr energiyasi hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda elektr energiyasining shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan 10 kun oldindan (joriy oy tugagungacha) berilishi kerak

elektr energiyasi to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lмаган elektr energiyasi yetkazib berilishi oqibatida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki elektr ta'minoti korxonasi (aybdor tashkilot) tomonidan yetkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplash;

Shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

Shartnomani bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

Elektr energiyasi sababsiz yetkazib berilishi to'xtatilganda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta'minoti shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo'ysunuvi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

“Iste'molchi” qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

##### **4.2. “Iste'molchi” quyidagilarga majbur:**

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish;

foydalanilgan elektr energiyasi (quvvati) uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblar va asbob-uskunalarning zarur texnik holatini va iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatasiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya

qilinishini ta'minlash, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta'minoti korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish:

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

"O'zenergoinspeksiyaning"ning yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari talablariga rioya etish;

o'rnatilgan tartibda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi vakiliga elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ko'rishiga imkon berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lган ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan maxsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarining ehtiyojini hisobga olish.

Iste'molchi tomonidan hisobga olish priborni EHNAT tizimida muqobil (soz holda) ishlashiga to'sqinliq qilishi amaldagi Qonun va boshqa me'yoriy huquqiy xujjalarga asosan javobgar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ulangan quvvati 5 MVt va undan ortiq bo'lган "Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona"ning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart:

iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamalni davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.

Ulangan quvvati 250 kVA va undan ortiq bo'lган iste'molchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan ilg'or normalarini ishlab chiqish - umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo'yicha; yillik, choraklik va oylik - ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga qarab qayta ko'rib chiqish;

korxona bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste'molchilar guruuhlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lishini aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraft etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lган ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo'ljallanayotgan prognoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me'yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me'yorlariga rioya qilish va ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

"Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarishi shart.

"Iste'molchi" qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

#### 4.3. "Ta'minotchi korxona" quyidagi huquqlarga ega:

iste'molchilardan elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan majburiyatlarni tegishli darajada bajarishni talab etish;

iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoki buzilishi oqibatida unga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda qoplanishi;

avaruya rejimida iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish (o'chirish);

EHNATga ulangan va oldindan to'langan mablag' tugagandan so'ng elektr energiyasi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish qurilmasiga ega hisobga olish asbob mavjud bo'lgan iste'molchilarni uzish. Bunda uzilgandan so'ng iste'molchining ko'rishi mumkin bo'lgan zarari uchun "Ta'minotchi korxona" javobgar bo'lmaydi.

Mazkur Qoidalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan holatlarda iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

"Ta'minotchi korxona" qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 4.4. "Ta'minotchi korxona" quyidagilarga majbur:

"Iste'molchi"ga elektr energiyasini elektr tarmog'i orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan xajmda muntazam yetkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi obyektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmog'i ho'jaligi obyektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

"Iste'molchi"ni elektr energiyasini yetkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish (Iste'molchi mas'ul xodimlarini uyali aloqa vositasi orqali (telefonogramma), ovozli xabar, telegram xabarnoma, SMS xabar orqali, internet sayt tarmoqlari orqali yoki yozma tarzda);

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni xajmi va vaqtি ko'rsatilgan holda "Iste'molchiga" oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi "Iste'molchi"ning arizasini. ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko'rib chiqish, "Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalari"ga muvofiq bartaraf etish va bataysil javob yuborish;

"Iste'molchi"ga o'rnatilgan tartibda yetkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

"Iste'molchi"ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmasdan taqdirda - bu haqida, rad etish sababini ko'rsatgan holda, iste'molchiga xabar qilish;

"Iste'molchi"da o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o'rnatish, plombalashni ta'minlash;

davlat standartiga muvofiq bo'lgan elektr energiyasini yetkazib berish.

iste'molchining sarflagan elektr energiyasi uchun qarzi vujudga kelganda qarzni besh kun muddatda to'lash zarurligi to'g'risida xabardor qilish (EHNATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno);

Ta'minotchi korxona qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha taraflar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo'ladi shuningdek, shartnomalar bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, "Ta'minotchi korxona" buning natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi agar:

"Iste'molchi" elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimiga rioxay qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'yganda, "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog'lik o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun;

elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar (IES, GES) va uni magistral tarmoq orqali yetkazib beruvchi (MET) korxonalar tomonidan elektr ta'minotida uzilishlar bo'lganda.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog'liq bo'lmasagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarni o'z ichiga olgan yengib bo'lmas kuch (fors-major) oqibatida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'lmasaganida, ular qonunchilikda belgilangan tartibida hal qilinadi.

## VI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

6. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Iste'molchi ushbu shartnomalar bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioxay etish majburiyatini oladi.

## VII. YAKUNIY SHARTLAR

7.1. Shartnoma 20~~xx~~ yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

7.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

7.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

7.5. Mazkur shartnoma talablarida nazarda tutilmagan tartib – qoidalari Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22 son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda boshqa amaldagi normativ – huquqiy xujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

### **Iste'molchilarga ogoxlantirish !**

Umumiy foydalanishdagi elektrtarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalari boshqacha tarzda buzish yoxud elektr energiyasini hisobga olish asboblariga shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 101 hamda Jinoyat kodeksining 185-2 moddalariga asosan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

## **VII. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI**

### **ISTE'MOLCHI:**

**Yuridik manzili** \_\_\_\_\_

Hisobraqami \_\_\_\_\_

Bank kodi (MFO) \_\_\_\_\_ STIR (INN) \_\_\_\_\_ **Директи**

*Respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashish uchun Iste'molchilar uchun* Выставок

*Byudjet fondining hisobraqami* Академии Художеств Узбекистана

ул. III Рашидова №40

Bank kodi (MFO) \_\_\_\_\_ STIR (INN) \_\_\_\_\_ **Кибичайства МФ РУЗ**

*Byudjetdan tashqari fondning hisobraqami* \_\_\_\_\_ **РКЦ Глав. Управ. ЦБ. РУЗ**

Bank kodi (MFO) \_\_\_\_\_ STIR (INN) \_\_\_\_\_ **МФО: 000 14 ИНН: 201 122 919**

QQS to'lovchining kodi \_\_\_\_\_ **ИИН: 200 336 159 ОКОНХ: 93 131**

Telefonlar: \_\_\_\_\_ Faks: \_\_\_\_\_ e.mail: \_\_\_\_\_

*(Iste'molchining, shu jumladan rahbarining uyali faks telefonlari kodi elektron manzil yoziladi)*

Kadastr raqami \_\_\_\_\_

### **Statistik kodlar:**

IFUT (OKED) \_\_\_\_\_

DBIBT (SOOGU) \_\_\_\_\_

MHOBT (SOATO) \_\_\_\_\_

(KFS) \_\_\_\_\_

TSHK (KOPF) \_\_\_\_\_

### **TA'MINOTCHI KORXONA:**

Pochta manzili *Якеагороди туманинине санчи Тонки йўлини - 1 ўчи*

Hisobraqami *22636000700126 958566*

Bank kodi (MFO) 00424 STIR (INN) 201052490

QQS to'lovchining kodi \_\_\_\_\_

Telefonlar: 71 230-30-74 Faks: \_\_\_\_\_

Statistik kodlar:

DBIBT (SOOGU) \_\_\_\_\_

MHOBT (SOATO) \_\_\_\_\_

Iste'molchi:

  
Pygubay Olibayev  
M.O., imzo, lavozimi, F.I.Sh.

Ta'minotchi korxona:

  
TUMAN ELEKTR  
TA MINOT  
M.O., imzo, lavozimi, F.I.Sh.

**YuRISTKONSULT HULOSASI:**

Mazkur elektr energiyadan foydalanish shartnomasi \_\_\_\_\_ yuristkonsult \_\_\_\_\_ F.I.Sh.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-soni qarori talablariga muvofiq tuzilgan. Tomonlar o'rtaida mazkur shartnomani tuzish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari moniylik qilmaydi. Shartnoma ishtirokchilarining xuquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuqqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga javob beradi. Shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lган javobgarlik masalasi tomonlar o'rtaida qonuniy kelishilgan. Shartnoma yuzasidan shartnoma ishtirokchilari o'rtaсидаги nizolarni hal qilish tartibi belgilangan.

Yuristkonsult: \_\_\_\_\_  
(imzosi)

### Yetkazib beriladigan energiya hajmi

1. Tarif guruhi ji
2. Faoliyat turi saqarət qizigazuvach bo'lishi
3. Iste'molchi elektr qurilmalarining ulangan quvvati: 80 kVA (kVt)
4. Texnik shart raqami \_\_\_\_\_, sanasi \_\_\_\_\_  
Texnik shart bo'yicha ruxsat berilgan quvvati 80 kVt
5. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) ii  
Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (amalda) ii
6. Hisob-kitob turi: BIR STARKALI  
tarif turi: tabaqalashirtilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan (keraklisi yozilsin)
7. Mahalla nomi W. Panfilov

Oylar	Energiya hajmi	
	Aktiv energiya shartnomaviy miqdori ming. kVt*soat	Reaktiv energyaning iqtisodiy miqdori ming. kVar*soat
Yanvar	<u>6660</u>	-
Fevral	<u>6660</u>	-
Mart	<u>6680</u>	-
Aprel	-	-
May	-	-
Iyun	-	-
Iyul	-	-
Avgust	-	-
Sentyabr	-	-
Oktyabr	-	-
Noyabr	-	-
Dekabr	-	-
<b>Yil, jami</b>		

Ish soat va kunlari: 12 soat, 30 kun


Umumiy yuklamaga nisbatan smenalar bo'yicha yuklanish % hisobida I 100, II 150, III 10

Iste'molchi



M.O' (Imzo, F.I.Sh., sana)

Ta'minotchi korxona



Elektr ta'minotining shartnomasiga  
2 - ilova

**Energiyani hisobga olish priborlari o'rnatilgan joylar va ularning tavsiflari**

“Iste’molchi”ning (subiste’molchining) hisobga olish pribori o’rnatilgan joylar, turi va kuchlanish toifasi (kV) ko’rsatilgan holda	Hisobga olish pribori turi (aktiv), (nominal toki)	Hisobga olish pribori raqami	Hisobga olish pribori klemma qopqog’idagi plombaning raqami	O’lchov transformator- larining transformasiya koeffisiyenti		Hisobkiobi koeffisiyenti	Xisobga olish priboriningsh artnomalar tuzilgan kundagi ko’rsatkichlar i, hisoblagich ko’rsatkichi	Tarif turi so’m/ 1 kVt.s.
				Tok	Kuchla- nish			
ГРЦЧ	EX 518	124200	0215073	300/5		60		450
	EX 518	124200	0215077	100/5		20		450

**Imzolar:**

Iste’molchi:

  
  
M.O. (Imzo)

Ta'minotchi korxona:

  
  
M.O. (Imzo)

Elektr ta'minotining shartnomasiga  
3 - ilova

**Tomonlar elektr tarmoqlarining balans mansubligi  
va ekspluatasiya qilish bo'yicha mas'ullik chegarasi**

**DALOLATNOMASI**

Izoh: Xar bir elektr energiyasi hisobga olish pribori uchun alohida 3 va 4-ilovalar tuziladi.

Hisobga olish pribori davlat raqami \_\_\_\_\_ tok transformatori \_\_\_\_\_ kuchlanish transformatori \_\_\_\_\_ jami koefisiyent \_\_\_\_\_ ulagan quvvati \_\_\_\_\_ kVt

Hisobga olish pribori o'rnatilgan joy (manzil) \_\_\_\_\_

1. "Iste'molchi"ning balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

a) havo elektr tarmog'i \_\_\_\_\_

b) kabel elektr tarmog'i  $12 \text{ кв.мм}^2 \times \text{АВВТ } 4 \times 9.5 \text{ мм}^2 \cdot 4 = 70 \text{ м}$

v) podstansiyalar, transformator podstansiyalari TP raqami \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ kVA

2. "Iste'molchi" va "Ta'minotchi korxona" o'rtasidagi elektr tarmoqlarning balans bo'yicha mansublik chegarasi ~~корзиний мақорозларни кўрсатади~~

~~к РУ-0,4 кВт ТН5605 8 оторни нотроимтесон~~

3. Ulardan quyidagilarga:


a) ~~у/з меседи оз Ру-0,4 кВт ТН5605 го п/и, а бе зуйтнокнибди бу бирнега~~ xizmat ko'rsatish "Iste'molchi" xodimlari tomonidan,

b) \_\_\_\_\_

"Iste'molchi" bilan tuzilgan "Texnik xizmat ko'rsatish" №\_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ y. shartnomasi asosida \_\_\_\_\_ tomonidan xizmat ko'rsatiladi.

4. Elektr qurilmalarning holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik

chegarasi quyidagicha belgilandi: ~~Ро Сарнуми 1.2 ТН5605  
на давление тока 17 А~~



Iste'molchi

M.O'.

Ta'minotchi korxona

M.O'.



(imzo)

(imzo)

Vakillar:

~~Руслан Оли~~

(F.I.Sh.)

(F.I.Sh.)

**Energiyani yo'qolishlarini aniqlash bo'yicha  
DALOLATNOMA**

Energiya hisobga olish priborlari elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi chegarasi hisobga olingen holda mansublik chegarasidan xisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lган qismi hisoblash yo'li bilan aniqlanadi va quyidagilarga xisoblanadi:

a) Quvvati \_\_\_\_\_ kVA bo'lган transformatorlardagi oylik aktiv energiyaning yo'qolishlari \_\_\_\_\_ kVt.soat yoki \_\_\_\_\_ %, reaktiv energiya yo'qolishlari \_\_\_\_\_ kVAr.soat yoki \_\_\_\_\_ % tashkil etadi;

b) Iste'molchining kabel liniyalaridagi har oylik energiyani yo'qotish:

Uzunligi 70 m;

Kesim yuzasi 4 x 55 mm<sup>2</sup>;

Rusumi 2 x 13 25 ;

Kuchlanishi 0.1 kV bo'lsa, \_\_\_\_\_ kVt.soatni, yoki 0.5 % tashkil etadi;

v) Iste'molchining havo liniyalaridagi har oylik energiya yo'qolishlari:

Uzunligi \_\_\_\_\_ m;

Kesim yuzasi 2 mm<sup>2</sup>;

Rusumi \_\_\_\_\_ ;

Kuchlanishi \_\_\_\_\_ kV bo'lsa, \_\_\_\_\_ kVt.soatni, yoki \_\_\_\_\_ % tashkil etadi.

Energiyani har oyda jami yo'qotishlar hajmi hisob davridagi energiya sarfining \_\_\_\_\_ foizini tashkil etadi.

Ushbu Shartnomaning 3.8 bandiga asosan yuqorida ko'rsatilgan energiya yo'qolishlari Iste'molchining xar hisob-kitob davri uchun, hisob-kitob davridagi amaldagi energiya iste'molidan kelib chiqib foiz hisobida yoki taraflarning kelishuvi assosida aniq qiymatlar ko'rinishida xisob-kitob qilinadi.

**Imzolar:**

